



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЙ



# «TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

## MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,  
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



2. Abdullayeva M., Djumabayeva D. Jahon adabiyotini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish (9-sinf adabiyoti darsligi "Jahon adabiyoti" bo'limi misolida). Metodik qo'llanma. – Toshkent: 2019. – 180b.
3. Abduvalitov N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jahon adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.dok. (PhD) diss. – Toshkent: 2021. – 166b.
4. Mirzayeva Z, Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent: Academic space, 2024. – 295b.
5. Yo'ldoshev Q, Yo'ldosh M. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 408b.
6. Yo'ldashev Q "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli". Toshkent: "Tafakkur", 2023. – 27-28 betlar.
7. Ruzimurodova F, Mirzayeva M, Ruzimurodova Z, Erkinov S. 2021. Implementation of multisensory schools (on the example of Alisher Navoi's work "Mehr and Suhayl". Jamiyat va innovatsiyalar – <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
8. Umurova F. Adabiyot darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning interfaol usullari. <http://web-journal.ru/>.
9. Matjan, S.1996. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. Toshkent: O'qituvchi.
10. Yo'ldoshev Q. 1996. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent: O'qituvchi.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/ZHBO2166

## **UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH**

**Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

[marjona.alfraganus@gmail.com](mailto:marjona.alfraganus@gmail.com)

ORCID:0009-0000-6062-8092

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining eng yuksak namunasi — "Xamsa" dostonlarini umumta'lim bosqichlarida tizimli va samarali o'qitishning nazariy va amaliy asoslari keng tahlil etilgan. Jumladan, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir dostonni bosqichma-bosqich o'rganish modeli, zamonaviy metodik yondashuvlar, darsda interaktiv va integratsion metodlardan foydalanish yo'llari, badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada shuningdek, "Xamsa"dagi qahramonlar timsolida axloqiy fazilatlar, milliy qadriyatlar, gender tengligi, tarixiy ong va madaniy merosga hurmat kabi tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi dars texnologiyalari misollar asosida ko'rsatib o'tilgan. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" kabi dostonlardagi tarbiyaviy, falsafiy va psixologik qatlamlar o'quvchilarda shaxsiy kamolot, tanqidiy fikrlash va o'zlikni anglashni rivojlantirish vositasi sifatida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xamsa, Navoiy, umumta'lim, badiiy tafakkur, tarbiya, gender yondashuvi, integratsiya, estetik tarbiya.

**Аннотация.** В настоящей статье подробно анализируются теоретические и практические аспекты преподавания «Хамсы» Алишера Навои на всех ступенях общего образования. Автор рассматривает модели поэтапного изучения поэм с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся, предлагает современные методические подходы, а также пути применения интерактивных и интеграционных



методов преподавания. Особое внимание уделяется формированию художественного мышления, моральных качеств, национальных ценностей, культурной идентичности и уважения к историческому наследию. На основе анализа таких поэм, как «Фархад и Ширин», «Лейли и Маджнун», «Садди Искандари» раскрывается их воспитательный, философский и психологический потенциал. Представленные педагогические технологии способствуют развитию критического мышления и самосознания учащихся.

**Ключевые слова:** Хамса, Навои, общее образование, художественное мышление, воспитание, гендерный подход, интеграция, эстетическое воспитание.

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical dimensions of teaching Alisher Navoi's Khamsa in general education institutions. It outlines a stage-based model of instruction aligned with students' age and cognitive development, integrating modern pedagogical strategies with interactive and interdisciplinary teaching methods. The author emphasizes how Khamsa contributes to cultivating literary thinking, ethical character, national identity, and respect for cultural and historical heritage. By analyzing poems such as Farhod and Shirin, Layli and Majnun, and Saddi Iskandariy, the article explores their educational, philosophical, and psychological value. The proposed teaching approaches demonstrate how these works can be used to foster critical thinking, moral development, and self-awareness among students at different stages of their academic journey.

**Keywords:** Khamsa, Navoi, general education, literary thinking, moral upbringing, gender approach, integration, aesthetic education.

## KIRISH

O'zbek adabiyoti va umuman Turk-Sharq madaniyatining eng buyuk durdonalaridan biri bo'lgan Alisher Navoiy merosi, xususan, uning "Xamsa" dostonlar turkumi, o'quvchi yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazish, ularning adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega. Hozirgi ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — ana shunday nodir badiiy merosni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan, zamonaviy yondashuvlarga tayangan o'qitish usullarini ishlab chiqish va ularni umumta'lim bosqichlariga integratsiyalashdan iborat. Bu borada Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari — "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai Sayyor" hamda "Saddi Iskandariy" asarlari didaktik, estetik, ma'naviy va tarbiyaviy qimmatini bilan ajralib turadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida o'quv dasturlari zamonaviy pedagogika talablari asosida tuzilayotgani bois, har bir asarning o'quvchi yosh xususiyatiga mos tushunilishi, adabiy-estetik idroki shakllanayotgan bosqichlarga monand tarzda tanitilishi zarur. Xususan, 9-sinfda "Farhod va Shirin" dostonidagi sadoqat, fidoyilik, axloqiy yetuklik kabi motivlarni soddalashtirilgan shaklda, dramatik hikoyalashtirish asosida tushuntirish tavsiya etiladi. Bu yoshda o'quvchilarning badiiy obrazni qabul qilish salohiyati endigina shakllanayotganligi sababli, ularning qiziqish :rasiga yaqinlashtirish maqsadga muvofiqdir.

5-sinfda esa "Hayrat ul-abror" dostonidagi falsafiy fikrlar, ahloqiy-g'oyaviy qarashlar asosida muhokama usullaridan foydalangan holda mantiqiy fikrlashga



undash, ma'naviy qadriyatlarga :r diskussiyalar tashkil etish mumkin. Ayniqsa, "Sab'ai Sayyor"da tasvirlangan yetti sayyora sultonining hikoyasi orqali har birining hayotga bo'lgan qarashi, shaxsiyati, dunyoqarashi asosida o'quvchilarda axloqiy mezonlar bo'yicha ijtimoiy pozitsiya shakllantiriladi.

10-sinfda esa Navoiy ijodining eng yuksak bosqichini, ya'ni "Saddi Iskandariy" dostonida jamlangan siyosiy, davlatshunoslik, tarixiy-falsafiy motivlarni o'rganishga bag'ishlanadi. Bu bosqichda o'quvchilar asar voqealari bilan cheklanib qolmay, Iskandar timsolidagi shohning adolat, zakovat, ilmga e'tibor, xalq bilan muloqotga ochiqligi kabi boshqaruv prinsiplari bilan tanishadi, ularni zamonaviy liderlik tushunchasi bilan taqqoslashga imkon topadi.

Zamonaviy adabiy ta'limning o'ziga xos jihatlaridan biri — intertekstual yondashuvdir. Bu uslub yordamida "Xamsa" dostoni badiiy obrazlari va sujeti boshqa bir adabiy asar namunalaridagi o'xshash timsollar bilan taqqoslanadi. Masalan, "Alpomish", "Kuntug'mish" dostonlaridagi Hakimbek, Kuntug'mish, Shopur, Qorajon kabi obrazlar bilan solishtirilib, o'quvchilarning umuminsoniy tuyg'ularga nisbatan tushunchasi kengaytiriladi.

Bundan tashqari, adabiy tanqid, tarix, falsafa, mantiq, axloqshunoslik, san'atshunoslik kabi fanlar bilan bog'langan integratsion darslar orqali "Xamsa" asarlarini o'qitish an'anaviy yondashuvlardan ancha samaraliroq bo'lishi mumkin. Masalan, "Hayrat ul-abror"dagi ijtimoiy mavqe, adolat, taqvo, ilmga ehtirom motivlari tarix fanida "Temur tuzuklari" bilan solishtirilsa, "Saddi Iskandariy"dagi siyosiy fikrlar hozirgi davlat tuzilmalari bilan bog'lab o'rganilishi mumkin.

"Xamsa" dostonlari o'z mazmuni jihatidan har bir o'quvchining ma'naviy kamoloti, axloqiy qiyofasi, ruhiy barqarorligini shakllantirishda mislsiz imkoniyatlar yaratadi. Bu asarlar faqat badiiy matn sifatida emas, balki o'quvchining o'z-o'zini anglashiga, ma'naviy saviyasining o'sishiga, muayyan axloqiy pozitsiyani egallashiga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaralishi lozim. "Farhod va Shirin"da fidoyilik, sadoqat, "Sab'ai Sayyor"da aql va hikmat, "Hayrat ul-abror"da axloqiy ideal, "Saddi Iskandariy"da adolatparvarlik g'oyalari – bularning barchasi umumta'lim maktabidagi shaxsiy tarbiyaning mohiyatini tashkil etuvchi asosiy yo'nalishlardir.

Shuningdek, bu asarlar orqali yoshlar o'z milliy adabiy merosiga, tiliga, madaniyatiga hurmat bilan qarashga o'rgatiladi. Har bir bayt, har bir syujet elementida xalqona donishmandlik, hayotiy kuzatuv, ijtimoiy mas'uliyat mujassam. Shu jihatdan, "Xamsa" dostonlarini chuqur va izchil o'rgatish — bu avvalo kelajakni ma'naviy jihatdan barpo etish demakdir.

## **NATIJALAR**

Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlarini yaratishda Sharq adabiyoti an'analari bilan g'arbiy falsafiy tafakkur elementlarini uyg'unlashtirgan bo'lib, bu asarlar nafaqat estetik zavq uyg'otadi, balki o'quvchilarda tahliliy fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish, g'oyaviy qatlamlarni aniqlash ko'nikmalarini



shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu holatni dostonlardagi qahramonlar xarakteri, konfliktlar va voqea rivoji orqali asoslab berish mumkin.

Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning fidoyiligi va Shirinning jasorati tasvirida nafaqat sevgi timsoli, balki ijtimoiy ong, shaxsiy erkinlik va axloqiy tanlov muammolari ko'tariladi. Ushbu obrazlar orqali o'quvchilar bilan bahsli savollar asosida munozara olib borish mumkin: "Farhodning o'z muhabbatini izlab qilgan safarini faqat sevgining qudrati deb baholash mumkinmi yoki bu safar uning o'zini topishi va hayotiy maqsadlarini anglash yo'lidagi sayohatmi?", "Shirin obrazidagi mustaqil qaror qabul qilish qadimiy jamiyatda ayolning ijtimoiy o'rni haqida qanday fikr uyg'otadi?".

Shuningdek, "Hayrat ul-abror" dostonida 20 ta bob orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ilmu ma'rifat, yetuk inson fazilatlarini, yolg'on va haqiqat kabi tushunchalar badiiy-falsafiy uslubda yoritiladi. Bu boblar orqali o'quvchilarida ijtimoiy tafakkurni shakllantirish, hayotdagi real muammolarga badiiy nigoh bilan qarash ko'nikmasini rivojlantirish mumkin. Ayniqsa, bu dostonning birinchi bobida ilmiy kishining jamiyatdagi o'rni haqida berilgan fikrlar hozirgi zamon uchun ham dolzarb bo'lib, ular zamonaviy o'qituvchilik, mutaxassislik va ziyolilik masalalariga ulanadi.

"Xamsa" dostonlarini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish asarning badiiy-estetik ta'sirini sezilarli darajada oshiradi. Dostonidagi ruhiy-psixologik murakkablikni o'quvchi faqat matn orqali emas, balki teatr elementlari, dramatisatsiya, qahramonlarning ichki monologi orqali chuqurroq anglaydi. Bu usul o'quvchilarda empatiya, obrazga kirishish, ruhiy tafakkurni rivojlantiradi.

Misol tariqasida, o'quvchilar ikki guruhga bo'linib, Xusrav va uning o'g'li Sheruya o'rtasidagi munosabat muhokama qilishadi. Bu esa o'quvchilarni ichki insho fikrlashiga undaydi: "Sheruyaning otasiga qilgan xiyonati shaxsiy manfaatmi, yoki taxt uchun kurash? Buning boshqa sabablari ham bormi?". Ana shunday yondashuvlar bilan adabiy obrazlarning zamonaviy psixologik tahliliga erishish mumkin.

Bundan tashqari, "Sab'ai Sayyor" dostonidagi yetti sayyoraning har biri bilan bog'liq hikoyalar orqali vizual xaritalar, grafik tafakkur, ilmiy-erkin ijodiy ishlanmalar asosida dars tashkil etish mumkin. Har bir sayyora haftaning bir kuniga bog'langan holda (oy, quyosh, Mars, Merkuriy va boshqalar) talabalarga qadimgi astronomik qarashlar, ramziylik, bashorat, qahramonlarning axloqiy pozitsiyasi, hikoyatdagi muammoli vaziyatlar tahlili topshiriq sifatida berilishi mumkin.

Masalan, "Juma kuniga to'g'ri kelgan sayyora haqida hikoya" degan mini-loyiha rasida o'quvchilar Navoiy matnidan dalillar keltirib, bugungi kundagi odamlar ongidagi e'tiqodlar va qadriyatlar bilan qiyosiy tahlil qilishi mumkin.

Hozirgi umumta'lim tizimidagi adabiyot darsliklarida "Xamsa" dostonlarining ba'zi boblari namunaviy parcha sifatida berilgan bo'lsa-da, ularning har bir bosqichda izchil o'qitilishi, tizimlashtirilgan metodika asosida yondashilishi lozim. B.To'xliyev epik asarlarni tahlil qilishda voqealar



qamroviga, asardagi personajlarga, qahramonlarning o'ziga xos ruhiy olamiga, asar tasvirlangan davr, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy qarashlarni hisobga olgan holda yondashishni nazarda tutadi. Alisher Navoiyning "Xamsa"si tarkibida beshta doston bor. Ularning barchasi bir xil janrda yozilgan. Shunga qaramay, ularning har biri o'z oldiga mutlaqo boshqa-boshqa badiiy-estetik maqsadlarni qo'ygan. Demak, ularni tahlil qilishda ham shu andozadan kelib chiqish zarur bo'ladi[1].

Shuning uchun adabiyot darsliklariga "Xamsa" asarlarini kengroq, tahliliy va bosqichma-bosqich bayon etuvchi modul ko'rinishida kiritish, ularni hujjatli film, animatsion lavha, didaktik material va testlar bilan boyitish lozim. Bunda zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy tamoyillari — kontekstual tahlil, obraz psixologiyasi, xronotop yondashuvi, qahramon-paraellar asosida ta'limiy metodika ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

Adabiyot — bu jamiyatning ruhiy aksidir. Uning eng yuksak shakllaridan biri bo'lmish doston janri esa tarixiy tafakkur, badiiy obraz va ijtimoiy g'oyani birlashtirgan ko'lamli estetik hodisadir. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari orqali umumta'lim bosqichlarida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash, tarixiy shaxsiyatlar va badiiy timsollar orqali estetik ongni shakllantirish vazifasi bajariladi.

Misol uchun, "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar obrazi O'rta asr sharq adabiyotidagi g'oyaviy yetakchilik timsolidir. U ilmparvar, adolatli, xalqqa xizmat qiluvchi shoh sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali o'quvchilarga zamonaviy dunyoda yetakchilik fazilatlarini qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritish imkoniyati tug'iladi. Dars davomida o'quvchilarga savol berish mumkin: "Bugungi rahbarlar orasida Iskandarga o'xshaganlar bormi? Qanday jihatlari bilan?". Bu kabi savollar madaniy-milliy asosdagi tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Yana bir misol: "Sab'ai Sayyor" dostonidagi yetti sayyora shahzodalari hikoyalari orqali o'quvchilar turli xalqlarning qadimiy afsonalari, hayot falsafasi va qadriyatlarini bilan tanishadilar. Bu esa ularning xalq og'zaki ijodi, mifologik tafakkur va madaniyatlararo qarashlar haqida tasavvurlarini kengaytiradi. Sayyoralar tasvirida Navoiy hayotga estetik nazar bilan qaraydi — go'zallik va donishmandlikni, baxt va adolatni ramziy ifodalaydi. Bunday ramzlar, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari uchun ruhiy kechinma va badiiy anglash jarayonini jonlantiradi.

"Xamsa" dostonlarida ayol obrazlari, ayniqsa, Shirin, Layli, Mehinbonu, Dilorom singari qahramonlar timsolida ko'rsatilgan murakkab, qahramonona, estetik, ayni paytda ijtimoiy faol ayollar shaxsi umumta'limdagi tarbiyaviy jarayon uchun beqiyos resurs bo'la oladi. Bunday obrazlar orqali o'quvchi-yoshlar orasida ayolga bo'lgan hurmat, tenglik, axloqiy ideallar shakllanadi.

Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida Shirinning siyosiy jihatdan faol, oqilona qaror qabul qiluvchi, irodali qahramon sifatida tasvirlanishi — o'rta maktabdagi o'quvchi-qizlar ongida zamonaviy ayol obrazining tarixiy ildizlariga urg'u beradi. Bu yerda o'qituvchi quyidagi topshiriqni berishi mumkin: "Shirin obrazini zamonaviy ayol rahbarlar bilan qiyoslang. Ularda qanday o'xshashliklar



bor?”. Bu metodik yondashuv orqali doston faqat estetik zavq emas, balki jamiyatdagi ayollar mavqei haqidagi tushunchani ham shakllantiradi [2]. “Farhod va Shirin” dostonida Shirin obrazi orqali esa o’quvchilarga his-tuyg’u, ma’sumlik, poklik, ma’naviy fidoyilik kabi tushunchalar singdiriladi. Ushbu obrazni o’rganish orqali 9-sinf o’quvchilarida jamiyatda ma’naviy poklik, muhabbatga sadoqat, ruhiy iztirobn tushunish va boshqalar dardiga hamdard bo’lish qobiliyati rivojlanadi.

O’zbek xalqining og’zaki ijodi — ertaklar, dostonlar, maqollar, afsonalar — “Xamsa”da bayon etilgan asosiy g’oyalar bilan o’zaro chambarchas bog’liq. O’qituvchi bu o’xshashlikdan foydalanib, darsda interaktiv va uyg’un yondashuv asosida xalq og’zaki ijodi namunalarini “Xamsa”dagi syujetlar bilan solishtirish usulini qo’llashi mumkin.

Masalan, “Hayrat ul-abror”dagi ilimli zot va johil podshoh haqidagi rivoyat xalq orasidagi “Ilmni bilgan donish, bilmas — sarson” degan maqol bilan bog’lanadi. Yoki “Layli va Majnun” dostonidagi Majnunning cho’lga ketgan holati, xalq dostonlaridagi “devona yigit” timsollariga o’xshatilib, milliy-estetik tafakkurda “haqiqiy sevgi”, “ma’naviy olijanoblik” tushunchasi bilan bog’liq holda tushuntiriladi [3].

Bu yondashuv nafaqat madaniy uzviylikni ta’minlaydi, balki o’quvchida o’z xalqining og’zaki ijodiga hurmatni kuchaytiradi, ko’p qatlamli badiiy tafakkurda tanqidiy qarash shakllanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri — o’quvchini bilimli bo’lish bilan bir qatorda ijtimoiy hayotga tayyor, axloqiy jihatdan mustahkam, estetik didga ega, fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdir. Bunda Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlari keng pedagogik imkoniyatlar manbai sifatida ko’riladi. Chunki mazkur dostonlarda ilgari surilgan g’oyalar — adolat, mehr-oqibat, sabr, halollik, bilimga intilish, insonparvarlik — bugungi kun uchun ham dolzarb bo’lib, ular yoshlar ongiga har bir bob, har bir obraz, har bir voqea orqali sekin-asta, ammo barqaror singdirilishi mumkin.

Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonining to’rtinchi bobida ilimli kishining fazilati va jaholatning zararli oqibatlari haqida chuqur falsafiy g’oya ilgari suriladi. Asarda ilimli odam xalqqa naf keltiradi, jamiyatni yuksaltiradi, johil esa tartibsizlik va zulmga sabab bo’ladi. Ushbu bob asosida o’quvchilarga quyidagi amaliy topshiriq berish mumkin: “Hayotingizda uchragan ilimli insonlar kimlar? Ular sizga qanday ta’sir qilgan?” yoki “Ilmsizlik jamiyatda qanday muammolarga olib keladi? Tarixdan yoki bugungi hayotdan misol keltiring.” Bu kabi topshiriqlar o’quvchilarda matnni faqat yodda saqlash emas, balki hayotiy voqelik bilan bog’lab tahlil qilish ko’nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, “Saddi Iskandariy”da Iskandar obrazining zamonaviy liderlik sifatlari bilan uyg’unligi o’quvchilarga real hayotdagi yetakchilarga nisbatan baho berishda muhim o’lchovlar beradi. Dostonning bir sahnasida Iskandar podshohlik qilgan xalqning og’ir ahvolini ko’rib, davlat tizimida islohotlar o’tkazishga qaror qiladi. Bu o’rinda o’quvchilarga zamonaviy O’zbekiston tarixidan misol keltirish taklif etiladi: mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-siyosiy



islohotlar, ta'limdagi tub o'zgarishlar va ularning xalq farovonligiga ta'siri haqida fikr yuritish. Bu orqali "Xamsa"ni tarix va hozirgi hayot o'rtasidagi ko'prik sifatida talqin qilish mumkin bo'ladi [4].

Yana bir misol tariqasida "Sab'ai Sayyor" dostonining har bir hikoyasi o'quvchi ongida hayotiy vaziyatlarni baholash, ma'naviy tanlov qilishda mustaqil pozitsiya shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, beshinchi hikoyada bir odam o'z do'stiga xiyonat qilganidan keyin kechirim so'raydi, ammo kechirilmaydi. Bu syujet asosida muhokama yuritiladi: "Kechirimlilik har :m ham to'g'rimi?", "Yaxshi munosabatni xiyonat buzganda, uni tiklash mumkinmi?". Bu kabi masalalar o'quvchining shaxsiy tajribasi va ichki axloqiy me'yorlari bilan bog'liq bo'lib, Navoiy asarlarining hayotiyligini va har bir darsda insoniylik sabog'ini berishini ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari nafaqat g'oyaviy-falsafiy mazmuni, balki o'zining yuqori darajadagi badiiy-uslubiy aniqqligi, poetik mukammalligi, tasviriy vositalarining boyligi bilan ham ajralib turadi. Umumta'lim bosqichida ushbu asarlarni o'qitishda o'quvchilarda adabiy til tuzilishini tushunish, poetik shakllarni idrok etish, badiiy ifoda vositalarini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dars jarayonida bayt tahlili orqali o'quvchilarga asardagi badiiy san'atlar — tashbeh, isti'ora, mubolag'a, tajnis, istiora kabi ifoda vositalarini anglatish nafaqat ularning lingvistik tafakkurini o'stiradi, balki tasvir orqali fikrni chuqur anglash, konnotatsion ma'nolarni ajratish, tilda noaniq obrazlarga estetik yondashishni shakllantiradi. Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta'rif va tavsif berar ekan, fikrni go'zal va nafis badiiyat libosiga o'rab o'quvchiga taqdim qiladi. Uni o'qir ekansiz, ifoda go'zalligi sizni maftun qiladi, so'zlar jilosi uchun adibga tahsinlar o'qiysiz[5].

Yuqori sinf o'quvchilarida "Hayrat ul-abror" yoki "Saddi Iskandariy" dostonlari asosida mavzuli baytlar jamlanmasi bilan ishlash orqali tanqidiy fikrni rivojlantirish mumkin. Masalan, "ilmli kishining qadri haqida", "adolat va zulm", "dunyochilik va ma'naviyat" kabi mavzular asosida baytlar ajratilib, ularning zamonaviy hayotga qanday aloqasi borligi muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchini badiiy ifodani real hayot bilan bog'lashga, estetik baholashni ijtimoiy pozitsiya bilan uyg'unlashtirishga yo'naltiradi.

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda o'qituvchining badiiy interpretatsiya mahorati alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur dostonlarning ko'plab baytlari chuqur falsafiy, ramziy va ruhiy ma'nolarga ega bo'lib, ularni yod olish emas, balki anglash va his qilish orqali o'zlashtirish mumkin. O'qituvchining baytdagi tuyg'uni jonli misollar, hikoyalar, zamonaviy voqealar bilan bog'lab berishi o'quvchida emotsional ta'sir uyg'otadi.

#### **XULOSA VA MUNOZARA**

Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan "Xamsa" dostonlari nafaqat adabiy meros sifatida, balki har bir o'quvchining ichki olamini boyituvchi, ma'naviy-axloqiy kamolotini belgilovchi pedagogik resurs sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim tizimida bu asarlarni o'rganish mazkur bosqichlarda



o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qabul darajasi, tafakkur rivojlanishi va shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Xususan, 5–7-sinflarda “Xamsa”ning soddalashtirilgan, qiziqarli, obrazli jihatlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq bo'lsa, yuqori sinflarda bu asarlarning falsafiy, ijtimoiy, tarixiy va tarbiyaviy qatlamlari ustida tahliliy ishlash, interfaol metodlar orqali bahs-munozaralar, taqqoslashlar, dramatizatsiyalar, loyiha ishlari orqali chuqur o'zlashtirishga erishish mumkin.

Shuningdek, “Xamsa”ni o'qitish jarayonida adabiyot fanining o'zaro bog'liq fanlar bilan integratsiyasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quvchining tanqidiy va ijodiy tafakkurini faollashtirishga qaratilgan yondashuvlar ayni muddaodir. Chunki “Xamsa”da ilgari surilgan g'oyalar – adolat, halollik, fidoyilik, ma'rifatparvarlik, insonparvarlik – bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida eng dolzarb masalalardan sanaladi.

Ta'limga yangicha qarash, darsni ma'naviyat maydoniga aylantirish, o'quvchini shunchaki asarni o'qitilayotgan mavzuning emas, balki hayotiy qadriyatlar manbai sifatida qabul qilishga yo'naltirish – bu zamonaviy adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Ana shunday yondashuv orqali biz Navoiyni faqat buyuk shoir sifatida emas, balki millatimizning ruhiy tayanchi sifatida o'quvchi ongiga chuqur singdirishimiz mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Navoiy, A. (2011). Xamsa (5 jildlik). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi.2006.-B.71.
3. Quronov, D. (2019). Navoiyshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya.  
Rasulov, B. (2017). “Xamsa” asarlarida falsafiy g'oyalar va ularning talimiy-tarbiyaviy ahamiyati. // O'zbek tili va adabiyoti, 4-son.
4. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf darsligi. –T.: O'zbekiston, 2019. –B. 53.



|                                                                                                                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>                                                                                     | 881 |
| <i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>                                                                  | 887 |
| <i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>                                        | 893 |
| <i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>                                         | 898 |
| <i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5–7-SINFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIİY TİL XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODIKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MISOLIDA</i> | 903 |
| <i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR</i>                                                                                          | 908 |
| <i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA</i>                                                | 916 |
| <i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>                                                                             | 920 |
| <i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>                                                                                                     | 925 |
| <i>Saydullayeva Shoiraxan Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>                                                                    | 930 |
| <i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>                                                         | 935 |
| <i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>                                                                                        | 942 |
| <i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)</i>                                                         | 950 |
| <i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>                                                             | 953 |
| <i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>                                                                     | 958 |
| <i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>                                                                               | 964 |
| <i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>                                                                                        | 968 |
| <i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIİY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>                                                   | 972 |

